

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “ODAM”, “OT EGASI”, “OTA YURT”  
HIKOYALARI BADIYATI

Malikabonu Yunusxo'jayeva

Termiz davlat universiteti 1- bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15389581>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada adib Shukur Xolmirzayevning ijodkorlik mahorati, “Odam”, “Ota yurt”, “Ot egasi” hikoyalariidagi hayat manzarasi, insonlar taqdiri, ular qalbidagi ruhiy kechinmalar va falsafiy mushohadalar tadqiq etildi.

**Kalit so’zlar:** uslub, inson umri, davr, zamon, taqdir.

THE ART OF SHUKUR Kholmirzayev's STORIES “ODAM”, “OT EGASI”, “OTA YURT”

**Abstract.** This article examines the creative skills of the writer Shukur Kholmirzayev, the life scenes in his stories “Odam”, “Ota yurt” and “Ot Egasi”, the fate of people, the spiritual experiences and philosophical thoughts in their hearts.

**Keywords:** style, human life, period, time, fate.

ИСКУССТВО РАССКАЗОВ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА «АДАМ», «ОТ ЭГАСИ»,  
«ОТА ЮРТА»

**Аннотация.** В статье рассматривается творческое мастерство писателя Шукура Холмирзаева, жизненные сцены в повестях «Адам», «Ота Юрт», «От Эгаси», судьбы людей, духовные переживания в их сердцах, философские размышления.

**Ключевые слова:** стиль, человеческая жизнь, эпоха, время, судьба.

Shukur Xolmirzayev – adabiyotimizning zabardast vakillaridan biri. U Surxon vohasining farzandi, buni ijodi mahsuli bo’lmish asarlari pafosidan ham anglash mumkin. Adib o’zbek adabiyotida o’z o’rniga ega bo’lgan ijodkor, negaki uning asarlarida o’zgacha uslub, o’zgacha ruh mujassam. Yozuvchi - “Oq otli”, “To’lqinlar”, “O’n sakkizga kirmagan kim bor” qissalari, “So’nggi bekat”, “Qil ko’prik”, “Yo’lovchi”, “Olabo’ji”, “Dinozavr” kabi romanlar muallifi. U mashhur adib Abdulla Qahhordan “To’lqinlar” qissasi uchun xat olgan. Adib o’zining aytishicha, katta ijodga qadam qo’yishidan avval jahon adabiyoti vakillari ijodi bilan tanishib chiqqan, dastlab rus adabiyoti vakili Sholoxovdan boshlagan va yirik adabiyot vakillari asarlarini o’qigan, shunda hamma narsa yozilgan ekan-ku, degan qarorga kelgan, biroq yozish uning uchun ehtiyojga aylanganligini e’tirof etgan va adabiyotda har kishi uchun joy bor, degan xulosaga kelgan. Shukur Xolmirzayevga eng ko’p shuhrat keltirgan janr hikoyalilik bo’ldi.

U hikoyalarda insonlarning bor bo’y-bastini, xarakterini ro’yi rost, oddiygina uslubda tasvirladi, hikoyalari obrazlarini to’qimadi, ularni hayotdan izladi. Taniqli yozuvchi Nazar Eshonqul Shukur Xolmirzayev haqida shunday degan edi: “Shukur akaning hikoyalari oddiy dardning ulug’vor ko’rinishlaridir.

Shukur akaning aksar qahramonlari oddiy kun kechirayotgan, bir qarashda, Vatanga, millatga, umuminsoniyatga daxli yo’q odamlardir. Ammo yozuvchining nigohi shu darajada o’tkirk, u ana shu daxlsizlik ortida yotgan millatga, Vatanga, bani basharga daxldor dardlarni ko’ra biladi, tasvirlay oladi, ko’rsatib bera oladi.

Davr va zamon qancha jimjimalarga o'ramasin, uni qanchalik moddiylashtirmasin, «rabotlashtirmasin», Shukur Xolmirzayev nigohi uni – do'zaxiy jim-jimalar, ohanjamalar ichidagi insonni, uning dardini ko'roldi, bu dardni Abdulla Qahhor uslubidan farqli ravishda ko'rsatib beroldi".<sup>1</sup>

“Asarlarim – mening hasratlarim”, degan edi yozuvchining o'zi. Hikoyalarida hayot manzarasi, insonlar taqdiri bo'yqlarsiz, jim-jimador tasvirlarsiz aks ettirilgan. Jumladan, adibning “Odam” hikoyasini olaylik. Unda bir inson hayot davrida neniki ko'rishi lozim bo'lsa, barchasi shu bir mo'jaz hikoyada ixcham, biroq jonli tarzda aks ettirilgan. Hikoyada oddiygina o'zbek ayoli taqdiri yoritilgan. Asar qahramoni Rahimaning avval qizlik davri, keyin kelinlik, so'ngra ona va buvi sifatida gavdalanishi hikoya syujetining asosini tashkil etadi. Rahima bir ayol qanday yashashi kerak bo'lsa, shunday yashadi: onasining vasiyatiga amal qilib, aytilgan kishiga turmushga chiqdi, eridan so'ng oila qilmadi, umrini farzandlariga bag'ishlab mehnat bilan o'tkazdi. Umrining oxirida bir necha kunga telbanamo bo'lib qolishi, yashab o'tgan umrining ko'z oldidan o'tishi hikoyaning kulminatsiyasi edi.

Ushbu hikoya falsafiyligi bilan ajralib turadi. “Odamzod hayoti oxirida... so'nish oldidagi shampa o'xshar emish. Odam o'lism ostonasida birdan kuch yig'adi ekan. Sham so'nish oldida birdan alanga olib yonadi-ku? Keyin so'nadi”.<sup>2</sup> Darhaqiqat, inson umri bir shamning yonib o'chgunigacha bo'lgan davrday bir gap. Hayotning naqadar qisqaligi, tez alangalanib, tezda so'nishi hikoyada go'zal o'xshatish bilan bayon qilingan.

Yuqoridagi misralarda aks etgan yozuvchining mushohadasiga, falsafasiga kitobxonning tan bermay iloji yo'q. Shuningdek, adib ijodida tabiat tasviri, jonivorlarga munosabat ham alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, “Ot egasi” hikoyasidagi bosh qahramon Inod o'z qishlog'ini sevadi, undagi har manzara uning uchun qadrdon, “zumrad qorli cho'qqilar”mi, “yashil o'tloqlar”mi - barchasi uning uchun “boylik”. Uning 3 “boyligi” bor edi: qishlog'i, maktabi va oti. Qorabayir oti hayotining bir qismiga, mazmuniga aylangan edi, oilasini yo'qotganida ham mana shu oti unga ovunchoq bo'ldi. Lavozimidan foydalanmoqchi bo'lgan bir leytenant jonivorga ega chiqish payiga tushadi. Inod otini unga bermasligini aytorda, niyatidan qaytmaydi. Shunda Inod otini otib tashlaydi.

Yozuvchi ushbu o'rirlarni shunday ta'sirli va jonli tasvirlaganki, beayb nobud bo'lgan otga achinmaslikning iloji yo'q. Bu jumlalarni yozayotganda, adibning o'zi qay ahvolga tushganikin?! Hikoyada inson va jonivorning naqadar yaqin do'st bo'la olishi, biri ikkinchisisiz yashay olmasligi yorqin aks ettirilgan. Hikoyani o'qigan adabiyot ixlosmandining qalbi junbushga kelishi tabiiy, shunday bo'lsa-da, hikoyaning yuksak qilib turgan jihatni ham mana shu kulminatsiyada. Shuningdek, asarda qishloq odamlarining soddaligidan foydalanib, o'z manfaatini ko'zlagan amaldorlar ham fosh etilgan.

“Ota yurt” hikoyasi ham yozuvchi mahorati mahsulining go'zal namunalaridan biri.

Ushbu hikoya realistik asar bo'lganligi bilan ham ahamiyatlidir. Hikoyada bir nechta masalalar qalamga olingan: ota yurt sog'inchi, Ulug' Vatan urushi, qon-qarindoshlik rishtalari, amaldorlar manmanligi.

<sup>1</sup> “Yoshlik” jurnali. 2012-yil 9-son.

<sup>2</sup> Xolmirzayev Sh. Saylanma. 1-jild. Hikoyalar. 159-bet.

Farmon ismli polvon raisga ta'zim qilmaganligi uchun qamalgani mazkur tuzumning qanchalar zalolatga botganligidan darak beradi, polvonning zindonda joynamoz ustida qazo qilganligi qaysidir ma'noda u kishining to'g'ri yo'lida ekanligiga ishora emasmi?! Otasini eslolmasa-da, ota yurtini ko'rmagan kishining qalbi u yerlarga, o'sha yerdagi qavm-u qarindoshlariga talpinishi hikoyada maromiga yetkazib tasvirlangan. Shu bilan birga o'gay otaning begona farzandga o'z bolasiday g'amxo'rlik qilishi tahsinga sazovor amallardandir.

Urush tufayli otasi bedarak ketgan Mansurjonning doimo ko'nglida g'ashlik bilan yurishi esa hikoyaning eng muhim qismlaridan biri. Urush ne-ne insonlarni otasiz, farzandsiz, turmush o'rtoqsiz qoldirdi va bu kishilar qalbida bitmas jarohat bo'lib qoldi. Mansurjon qalbida ham shunday yara bor edi. Otasini surishtirishga o'zida kuch topolmadi, biroq oxiri buni amalga oshirdi va otasining halok bo'lganligini bildi. Askar haykali qarshisida turib, unda otasining siyemosini ko'rgan Mansurjon qalbida nelar kechdi ekan?! Hikoya so'nggini yozuvchi kitobxon hukmiga havola qilgan.

Qisqa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayev hikoyalarida haqiqiy o'zbek kayfiyati, ruhini ko'rish mumkin, ulardagi qahramonlar xuddi kitobxonga qadrdonday tuyuladi, ular bilan birga qayg'uradi, ular bilan birga kuladi. Mana bu haqiqiy yozuvchi qalamining "sehri", mahorati deyilsa, mubolag'a bo'lmaydi.

## REFERENCES

1. Eshonqul N. Ham hayotda, ham adabiyotda shaxs edi. "Yoshlik", 2012, 9-sون.
2. Normatov U. Ijod sehri. T.: "Sharq", 2007. – 352 b.
3. Mirvaliyev S. O'zbek adiblari. T.: "Fan", 1993. - 157 b.
4. Xolmirzayev Sh. Saylanma. 2-jild. T.: "Sharq", 2013. – 247 b.
5. Internet saytlari.